



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 31-yanvar

46-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tuproq monitoringini amalga oshirish hamda tuproqning unumdor qatlamini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 33-son qarori ijrosi haqida”gi 35-6-0-Q/25-qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tuproq monitoringini amalga oshirish hamda tuproqning unumdor qatlamini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 33-son hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 28-yanvardagi 35-6-0-Q/25-qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tuproq monitoringini amalga oshirish hamda tuproqning unumdor qatlamini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 33-son qarori ijrosi haqida”gi 35-6-0-Q/25-qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 33-sonli qarori bilan: Quyidagilar:

Tuproq monitoringini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Tuproqning unumdor qatlamini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi o‘z vakolatlari doirasida yer fondi toifasidan qat‘iy nazar, yerlarni rekultivatsiya qilish, buzilgan yerlarni tiklash, foydalanish uchun yaroqli holga keltirish, tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini bajarish, tuproqni himoyalaydigan texnologiyalarni

joriy etish ustidan tegishli tadbirlarni amalga oshirishi va natijasi bo‘yicha ma‘lumotlarni har chorak yakuni bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligining geoportaliga joylashtirib borishi;

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi yer fondi toifasidan qat‘iy nazar, shaharsozlik faoliyati, geologik-qidiruv va foydali qazilmalarni qazib olish, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni

amalga oshirish jarayonida tuproqning unumdor qatlamini aniqlash bo'yicha Qishloq xo'jaligi vazirligining Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutidan xulosa olinishini ta'minlashi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi shaharsozlik faoliyati, geologik-qidiruv va foydali qazilmalarni qazib olish, shuningdek, qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi loyiha ijrochilari tomonidan tuproq qatlami sidirib olinishi va belgilangan dala konturiga ko'chirilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda shaharsozlik faoliyati, geologik-qidiruv va foydali qazilmalarni qazib olish, shuningdek, qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida tuproqning sidirib olingan unumdor qatlamini ko'chirish uchun unumdorligi past, tarkibida tosh va qum bo'lgan hamda yangi o'zlashtiriladigan qishloq xo'jaligi maydonlari muntazam ravishda belgilab berilishini ta'minlasin.

4. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining viloyat bo'limi (M.Usmanov), shaharsozlik faoliyati, geologik-qidiruv va foydali qazilmalarni qazib olish, shuningdek, qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi loyiha ijrochilari tomonidan tuproq qatlami sidirib olinishi va belgilangan dala konturiga ko'chirilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirilishini ta'minlasin.

5. Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari (A.Xakimov), Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov), tuman "suv yetkazib berish xizmati" DM (I.Abdullayev), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (A.Xudoyberdiyev), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (T.Mamatqulov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi 33-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov